

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 9 253,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 8,3 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 3,8 % ga yetdi.

### 2024- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



108,3 %

9 253,8 mlrd. so'm



111,2 %

3,8 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish  
(yanvar-mart oylarida)

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>7 678,6</b>	<b>9 253,8</b>	<b>108,3</b>
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 458,4	9 059,9	108,3
mahsulotlarga sof soliqlar	220,2	193,9	109,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>7 458,4</b>	<b>9 059,9</b>	<b>108,3</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>1 510,0</b>	<b>1 722,9</b>	<b>104,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 008,4</b>	<b>2 388,1</b>	<b>109,8</b>
sanoat	1 450,6	1 760,4	109,8
qurilish	557,8	627,7	109,8
<b>xizmatlar</b>	<b>3 940,0</b>	<b>4 948,9</b>	<b>109,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	793,3	961,8	111,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	586,4	760,3	119,5
boshqa xizmat tarmoqlari	2 560,3	3 226,8	106,0

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi  
(% da)**

**2023- yil yanvar-mart**



**2024- yil yanvar-mart**



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga soʻf soliqlar

Yalpi hududiy mahsulotda 2024- yil yanvar-mart oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 100 279,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 5 835,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida 84 296,0 mlrd. so‘mni, Namangan viloyatida esa 4 808,7 mlrd. so‘mni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2024- yil yanvar-mart oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 42,7 % (2023- yil yanvar-mart 44,0 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 64,4 % (2023- yil yanvar-mart 64,5 %) ni tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi  
(jamiga nisbatan % da)**



2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 64,4 % ni tashkil qildi (2023- yilning yanvar-mart oyida – 64,5 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.



## Namangan viloyatining 2024- yil yanvar-mart oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi  
(ming so‘mda)



2 555,3

2023- yil



3 011,3

2024- yil

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHMni ishlab chiqarish (2024- yil yanvar-mart)

Ko‘rsatkichlar	mlrd. so‘m		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O‘zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami shu jumladan:</b>	<b>242 701,6</b>	<b>9 253,8</b>	<b>3,8</b>
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	234 683,5	9 059,9	3,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	8 018,1	193,9	2,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>234 683,5</b>	<b>9 059,9</b>	<b>3,9</b>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	26 429,8	1 722,9	6,5
<b>Sanoat (qurilish sohasini qo‘shgan holda)</b>	<b>81 489,2</b>	<b>2 388,1</b>	<b>2,9</b>
sanoat	68 487,5	1 760,4	2,6
qurilish	13 001,7	627,7	4,8
<b>Xizmatlar</b>	<b>126 764,5</b>	<b>4 948,9</b>	<b>3,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	18 789,6	961,8	5,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	21 478,6	760,3	3,5
boshqa xizmatlar	86 496,3	3 226,8	3,7

YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 20,2 %), sanoatda – 104,3 % (19,1 %), qurilishda – 104,9 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 106,0 % ni (53,3 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,2 % (10,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog'ida 112,9 % (7,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,3 % dan (35,7 %) iborat bo'ldi.

**2023-2024- yil yanvar-martda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan % da)**

